

**KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA  
HUKUMATNING SOHA RIVOJIGA OID CHORA-TADBIRLARI**

**Xudoberganov Qobuljon Mirzatolib o'g'li**

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolaning maqsadi, Respublikasimiz hududida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi ulushini o'rganish, tahlil qilish va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. So'nggi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari xizmatlar ko'rsatish sohasida sezilarli o'sish ko'rsatkichlarini qayd etgan bo'lib, bu sektorda ishchi o'rinlarining yaratilishi, innovatsiyalar va raqobatning kuchayishi kuzatilmoqda. Ushbu maqolada xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini, mavjud muammolarni, ularni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini va davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatni o'rganish orqali iqtisodiyotdagi ularning o'rni aniqlanadi. Shuningdek, maqolada kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi rivojlanish tendensiyalari, imkoniyatlari va kelgusi istiqbollari hamda shu sohadagi raqobatni rivojlantirishga oid takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Kichik tadbirkorlik, iqtisodiyot, tashkiliy tuzilmalar, korporatsiyalar va inson kapitali.

Yaxshi ma'lumki, kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Ularning iqtisodiy ahamiyatini to'g'ri tushunish, ayniqsa, xizmatlar sektorida ularning roli tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa, xizmatlar ko'rsatish sohasida, iqtisodiy o'sish, mehnat bozorining rivojlanishi va davlat byudjetining shakllanishiga katta hissa qo'shmoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlarining ish o'rinlari yaratish va mehnat bozoriga ta'siri haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, O'zbekiston iqtisodiyotida kichik tadbirkorlik subyektlari ish o'rinlarini yaratish orqali mehnat bozorida muhim rol o'ynaydi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes sektorida millionlab odamlar ishlamoqda. Bu, ayniqsa, yangi ish o'rinlarini yaratishga, ayniqsa, yoshlar va ayollarga ish bilan ta'minlashda muhimdir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari o'zlarining xizmatlarini taklif qilib, mamlakatning ichki iste'mol bozorini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida, xizmatlar sohasining o'sishiga, kompaniyalar va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatiga yordam beradi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlari o'zlarining xizmatlarini taklif qilib, mamlakatning ichki iste'mol bozorini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida, xizmatlar sohasining o'sishiga, kompaniyalar va jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatiga yordam beradi. Iqtisodiyotning ushbu sektori bozorni diversifikatsiya qilishga yordam beradi, yangi va innovatsion xizmatlarni ishlab chiqarish orqali iqtisodiy muhitni yanada boyitadi. Masalan, raqamli xizmatlar, onlayn marketing, moliyaviy texnologiyalar kabi yangi sohalar kichik biznes tomonidan kengaytirilmoqda.

Davlatning kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga oid tadbirlari iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kichik va o'rta biznes (KO'B) davlat iqtisodiyotining muhim qismi bo'lib, bu sohani rivojlantirish uchun davlat bir qator qonunlar,

dasturlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqadi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi 105-son "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish dasturi" loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori imzolandi. Ushbu qarorda 2021-yil 20-dekabrda Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o'rinlarda — OTB) hamda O'zbekiston Respublikasi o'rtasida "Kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish dasturi" loyihasi (keyingi o'rinlarda — loyiha) doirasida 5 yillik imtiyozli davr bilan 25 yil muddatga 80,0 million AQSh dollari miqdorida hamda 3 yillik imtiyozli davr bilan 15 yil muddatga 213,58 milliard so'm miqdoridagi qarzlarni O'zbekiston Respublikasiga ajratish bo'yicha qarz bitimlari imzolanganligi; kichik va o'rta tadbirkorlik uchun kulay muhitni yaxshilash bo'yicha OTB bilan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar matritsasi doirasidagi 1-kichik dastur yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinishi belgilab o'tilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va boshqa ko'plab qonun hujjatlari bilan respublikamiz hududida kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash va ularning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish bo'yicha barcha zarur ishlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Ushbu qarorga muvofiq 2024-yil 1-sentabrdan 2025-yil 31-dekabrga qadar "Biznesni rivojlantirish banki" ATB huzuridagi kichik biznesga ko'maklashish markazlari (keyingi o'rinlarda — markazlar) yordamida ishlab chiqilgan loyihalar doirasida import qilinadigan asbob-uskunalarni sug'urtalash hamda xomashyo va materiallarni sertifikatlash xarajatlarining 50 foizigacha qismini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmagan miqdorda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi joriy etilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, "Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq markazlar davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilinadigan kichik tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik loyihalari doirasida quyidagilarga amaliy ko'mak beradi:

asbob-uskunalar va texnologiyalarni tanlash, xarid qilish va o'rnatish;

markazlarda tashkil qilingan amaliy o'quv kurslarida biznesni tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq yo'nalishlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarini o'qitish;

davlat ishtirokidagi yirik korxonalarining ishlab chiqarish maydonlarida kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarini kasb-hunarga o'qitish va malakasini oshirish;

kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun ularni davlat xaridlari tizimiga keng jalb qilish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda kichik tadbirkorlik subyektlari bilan kooperatsiya aloqalarini o'rnatgan yuridik shaxslar bilan davlat xaridlarini amalga oshirish tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin" bandida hukumatimiz tomonidan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshlarning kichik tadbirkorlik loyihalari alohida qo'llab-quvvatloviga ahamiyat qaratishimiz mumkin.

Yuqoridagi qarorlar va boshqa ko'plab qonun hujjatlari davlatning iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va jamiyatda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy,

huquqiy, moliyaviy va boshqa yo'nalishlardagi choralar tizimi hisoblanadi. Bundan tashqari, **ixtisoslashgan yuridik va moliyaviy yordam**, ya'ni biznesni yuritishdagi xavflarni kamaytirish, kredit olishda davlat kafolati va sug'urtalash tizimi orqali tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash ular uchun ishni osonlashtiradi va ularning o'z faoliyatlarini yanada kengaytirishga turtki beradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati iqtisodiyotning barqaror va o'sishiga asosiy turtki bo'lib, ayniqsa, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish, raqobatni kuchaytirish, ichki ishlab chiqarishni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda juda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, bu siyosat yordamida kichik tadbirkorlar o'z bizneslarini muvaffaqiyatli boshqarish, rivojlantirish va global bozorda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Davlatning kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlari va chora-tadbirlari natijasida, O'zbekistonning kichik biznes sektori yanada rivojlanib, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi 105-son "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish dasturi" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori
3. S. B. Sattorova. F. B. Shakirova Kichik biznes faoliyatini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash nazariyasi. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>
4. Shahzoda Hatamova. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznesni boshqarish tashkiliy mexanizmini takomillashtirish". <https://doi.org/10.5281/zenodo.6333622>
5. Farhod o'g'li, X. B. (2024). KICHIK BIZNESNI YIRIK BIZNESGA TRANSFORMATSIYASI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 4(1), 83-86.
6. Farhod o'g'li, X. B. (2024). Biznes yuritishning me'yoriy-xuquqiy asoslari va institutsional sharoitlari. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 4(2), 126-130.
7. Kichik biznes va tadbirkorlik Muallif: Boltabaev M. Noshir: Betlar: 130-145
8. M.R. Boltaboev, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxodjaeva, B.K. G'oyibnazarov, A.N. Samadov, R.Xodjaev. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. -T.: 2011